

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA FAVQULODDA VAZIYATLARNI OLDINI OLISH VA BUNDAY VAZIYATLARDA HARAKAT QILISH QUYI TIZIMINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI

*Andijon viloyati favqulodda vaziyatlar
boshqarmasi hayot faoliyati xavfsizligi o'quv markazi katta o'qituvchisi*
Hamraboyev Ilhom Sotvoldiyevich
Telefon: 94 327 25-90

Annotatsiya: *Mazkur ilmiy maqolada O'zbekiston Respublikasida Favqulodda vaziyatlarning oldini olish, ularning oqibatlarini kamaytirish va aholini muhofaza qilish tizimini takomillashtirish masalalari tahlil qilingan. Shuningdek, favqulodda vaziyatlarni oldini olish bunday vaziyatlarda harakat qilish quyida tizimining mavjud muammolari va ularni bartaraf etish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqilgan.*

Kalit so'zlar: *favqulodda vaziyat, monitoring, prognozlash, xavfsizlik, boshqaruv tizimi, aholi muhofazasi, FVDqT.*

KIRISH

Hozirgi global o'zgarishlar sharoitida tabiiy va texnogen xususiyatga ega favqulodda vaziyatlar soni ortib bormoqda. Bu esa davlatlardan samarali profilaktika va tezkor javob choralari talab etadi O'zbekiston Respublikasida ham ushbu sohada keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumaladan 2023 yil 29 aprel kunidagi O'zbekiston respublikasi vazirlar mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Favqulodda Vaziyatlarning oldini olish va bunday vaziyatlarda harakat qilish Davlat tizimi" to'g'risidagi 171-son qarorida aniq va ravshan ko'rsatib o'tilgan. Favqulodda vaziyatlarni oldini olish va ularga qarshi samarali kurashishda quyida tizim (lokal va hududiy boshqaruv bo'g'inlari) muhim o'rin tutadi.

Favqulodda vaziyatlarni oldini olish tizimining ahamiyati

Favqulodda vaziyat - odamlar qurbon bo'lishi, ularning sog'lig'i yoki atrof tabiiy muhitga zarar yetishi, jiddiy moddiy talafotlar keltirib chiqarishi hamda odamlar hayot faoliyati sharoiti izdan chiqishiga olib kelishi mumkin bo'lgan yoki olib kelgan avariya, halokat, xavfli tabiiy hodisa, tabiiy yoki boshqa ofat natijasida muayyan hududda yuzaga kelgan vaziyat;

- favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish choralari, usullari, vositalari tizimi, sa'y-harakatlari majmui;

favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish - favqulodda vaziyatlar ro'y berganda o'tkazilib, odamlar hayoti va sog'lig'ini saqlash, atrof tabiiy muhitga yetkaziladigan zarar va moddiy talafotlar miqdorini kamaytirishga, shuningdek favqulodda vaziyatlar ro'y bergan zonalarini halqaga olib, xavfli omillar ta'sirini tugatishga qaratilgan avariya-qutqaruv ishlari va kechiktirib bo'lmaydigan boshqa ishlar kompleksi.

favqulodda vaziyatlarning oldini olish - oldindan o'tkazilib, favqulodda vaziyatlar ro'y berishi xavfini imkon qadar kamaytirishga, bunday vaziyatlar ro'y bergan taqdirda esa,

odamlar sog'lig'ini saqlash, atrof tabiiy muhitga yetkaziladigan zarar va moddiy talafotlar miqdorini kamaytirishga qaratilgan tadbirlar kompleksi;

Favqulodda vaziyatlarni oldini olishda - bu ularning yuzaga kelish ehtimolini kamaytirish va oqibatlarini yengillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuasidir. Bu jarayon quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- viloyat, shahar va tuman xududidagi xavflarni aniqlash va baholash;
- Favqulodda vaziyatlarni monitoring va prognozlash;
- Xavfli hududlarda istiqomat qiluvchi aholini xabardor qilish;
- favqulodda vaziyatlarning oldini olishda, oldindan muhandislik muhofaza choralarini amalga oshirish.

Quyi tizimning o'рни va asosiy vazifalari

FVDT hududiy quyi tizimlarining tashkil etish, kuchlari va vositalari tarkibi, faoliyat ko'rsatish tartibi mazkur xar bir quyi tizimning mahalliy geofizik va tabiiy-iqlim sharoitlarini, xavf darajasi yuqori ob'ektlarning mavjudligini hisobga olgan holda ishlab chiqiladigan ushbu quyi tizimlar to'g'risidagi nizomlar bilan belgilanadi.

Hududiy quyi tizimlar to'g'risidagi nizomlar O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi (keyingi o'rinlarda - FVV) bilan kelishgan holda tegishli ravishda Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari tomonidan, shuningdek, mos ravishda hududiy Favqulodda vaziyatlar boshqarma (bo'lim)lari bilan kelishgan holda tuman (shahar)lar hokimlari tomonidan tasdiqlanadi.

Favqulodda Vaziyatlar Davlat Tizimining funksional quyi tizimlari respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari va boshqa tashkilotlarda aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish bo'yicha belgilangan funksiyalarni bajarish, shuningdek, idoraviy mansub ob'ektlarda ularning ishlab chiqarish faoliyati bilan bog'liq favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish uchun tashkil etiladi hamda FVDT xizmatlaridan, quyi tizimlarning davlat nazorati organlari, kuchlari va vositalaridan iborat bo'ladi.

Quyi tizim - bu mahalliy hokimiyat organlari, tashkilotlar va Fuqaro muxofazasi xizmatlardan iborat bo'lib, favqulodda vaziyatlarni oldini olishda va uning oqibatlarini bartaraf etishda bevosita harakat qiladi.

aholini favqulodda vaziyat ro'y berishi xavfi to'g'risida yoki favqulodda vaziyat ro'y berganligi haqida xabardor qilishning avtomatlashtirilgan tizimining mahalliy darajasini tashkil etish va doimiy tayyor holatda saqlash;

boshqarish va axborotni uzatish uchun umumiy foydalaniladigan telekommunikatsiyalar hududiy tarmoqlaridan va telekommunikatsiyalarning idoraviy tarmoqlaridan, radio, televidenie va boshqa texnik vositalardan markazlashtirilgan holda foydalanilishini ta'minlash;

FVDTning manfaatdor funksional quyi tizimlari bilan birgalikda kimyoviy, yonish, portlash va boshqa xavf darajasi yuqori bo'lgan ob'ektlarda, shu jumladan, suv omborlarining gidrotexnika inshootlarida ularning texnik holatini avtomatik kuzatish, yong'in va boshqa

xavflardan darak beruvchi tizimlarni, shuningdek, ushbu ob'ektlarda va ularga yondosh hududlarda aholini favqulodda vaziyat ro'y berishi xavfi to'g'risida yoki favqulodda vaziyat ro'y berganligi haqida xabardor qilishning avtomatlashtirilgan tizimining lokal darajasini yaratish va ularning doimiy shayligini ta'minlash;

favqulodda vaziyatlarga olib keluvchi xavfli tabiiy, texnogen va ekologik jarayonlarning rivojlanish ehtimolini, xususiyatlari hamda ko'lamini, shuningdek, ro'y berishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlarni prognoz qilish uni oqibatlarini baholash;

FVDqT boshqaruv organlari, boshqaruv punktlari, favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bartaraf etish bo'yicha harakatlarga kuchlar va vositalarning doimiy tayyorligini ta'minlash;

ro'y bergan favqulodda vaziyatlar, ularning rivojlanish ko'lamlari va kechishi, keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan oqibatlari, ularni bartaraf etishga doir ko'rilayotgan chora-tadbirlar to'g'risidagi axborotlarni to'plash, almashish va ular to'g'risida o'z vaqtida xabar qilish;

FVDT hududiy quyi tizimlari kuchlari va vositalarining, shuningdek, ko'ngilli tuzilmalar, qutqaruv xizmatlari va Fuqaro muhofazasi tuzilmalarining favqulodda vaziyatlar chog'ida qutqaruv ishlarini va boshqa kechiktirib bo'lmaydigan ishlarni amalga oshirishiga rahbarlik qilish va harakatlarining uyg'unligini ta'minlash, volontyorlar hamda mehnatga layoqatli aholini ushbu ishlarga jalb qilishni tashkil etish;

Mavjud muammolar tahlili

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, quyi tizim faoliyatida qator muammolar mavjud:

Shaxar va tuman Fuqaro muhofazasi xizmatlari va fuqaro muhofazasi tuzilmalarining texnik jihozlanish darajasining pastligi;

Ayrim Fuqaro muhofazasi xizmatlari zamonaviy axborot texnologiyalaridan yetarli foydalanilmasligi;

FVDqTda shaxar va tumanlari Fuqaro muhofazasi xizmatlarida aloxida mazkur masala bilan shug'illanadigan shtat birliklari yo'qligi, bu ishga biriktirilgan kadrlarning malakasining yetarli emasligi;

-xavfli xududlarda istiqomat qiluvchi aholining favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlik darajasi pastligi profilaktik tadbirlar va aholi bilan davra suxbatlari samarali tashkil etilmaganligi ;

FVDqT shahar va tuman kesimlarida idoralararo hamkorlikdagi tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlarni oldini olish va oqibatlarini bartaraf etish rejalarini kamchiliklar bilan ishlab chiqilganligi.

FVDqT rivojlantirish yo'nalishlari

FVDqTtakomillashtirish uchun quyidagi choralar taklif etiladi:

Raqamli texnologiyalarni joriy etish

GIS (geoaxborot tizimlari)dan foydalanish;

onlayn monitoring va erta ogohlantirish tizimlarini rivojlantirish;

mobil ilovalar orqali,yoki mahalliy va lokal aholini xabardor qilish tizimini takomillashtirish. .

Kadrlar salohiyatini oshirish

Muntazam Maxsus taktik o'quv mashg'ulotlari tashkil etish va o'tkazish fuqaro muhofazasi tuzilma azolarini amaliy ko'nikmalarini oshirish;

xalqaro tajriba almashinuvi;

Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi Hayot Faoliyati Xavfsizligi o'quv markazlarida fuqaro muhofazasi tuzilma azolari malaka oshirish kurslari samaradorligini oshirish.

Moddiy-texnik bazani mustahkamlash

fuqaro muhofazasi xizmatlari va tuzilmalarini zamonaviy qutqaruv texnikasi bilan ta'minlash va maxsus jihozlar va aloqa vositalarini yangilash;

Aholini tayyorlash

ommaviy o'quv mashqlari;

ta'lim muassasalarida xavfsizlik darslarini kuchaytirish;

ommaviy axborot vositalari orqali tushuntirish ishlari.

Idoralararo hamkorlikni kuchaytirish

yagona boshqaruv platformasini yaratish;

favqulodda vaziyatlarda axborot almashinuvini tezlashtirish.

XULOSA

O'zbekiston Respublikasida favqulodda vaziyatlarni oldini olish va ularga qarshi samarali harakat qilish tizimini rivojlantirish davlat xavfsizligini ta'minlashning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, quyi tizimni takomillashtirish orqali favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlik darajasini oshirish mumkin.

Taklif etilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish orqali favqulodda vaziyatlar oqibatlarini sezilarli darajada kamaytirishga erishiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi vazirlar mahkamasining 2023 yil 29 apreldagi O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bunday vaziyatlarda harakat qilish davlat tizimi faoliyatini samarali tashkil etish chora tadbirlari to'g'risi" dagi 171-sonli qarori.

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 9 sentabrdagi "Aholini favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga va fuqaro muhofazasi sohasida tayyorlash tartibini takomillashtirish to'g'risida" gi 754- sonli qarori.

3. O'zbekiston Respublikasining "Qutqaruv xizmati va qutqaruvchi maqomi to'g'risida" gi qonuni 2008 yil 26 dekabr.